





**TOSHKENT VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**  
(dastlabki ma'lumotlar)



Toshkent viloyati bo'yicha 2020-yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2 755,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 3,6 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 236,5 mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 86,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 2 518,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 105,6 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 185,3 mlrd. so'mni (2019 yilning shu davriga nisbatan 3,0 % ga kamaygan) tashkil etdi.

**HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI**  
(mlrd. so'm)





**CHAKANA SAVDO  
AYLANMASIDA  
YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES  
VA XUSUSIY  
TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARI-  
NING HAJMI  
VA O'SISH  
SUR'ATLARI**  
(mlrd. so'm, foizda)

	Jami	%	Yirik korxonalar	%	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik	%
Toshkent viloyati	2 755,1	103,6	236,5	86,0	2 518,5	105,6
<i>Shaharlar:</i>						
Nurafshon	76,0	109,9	1,5	6,2 m.	74,5	108,1
Olmaliq	243,9	102,8	37,8	108,9	206,0	101,8
Angren	135,4	102,6	9,3	116,5	126,1	101,7
Bekobod	186,3	102,6	35,9	87,7	150,3	107,0
Ohangaron	48,9	101,8	7,1	78,5	41,8	107,2
Chirchiq	141,9	102,5	14,5	66,2	127,4	109,3
Yangiyo'l	171,2	100,9	5,5	111,8	165,7	100,6
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	113,5	102,9	1,7	112,4	111,9	102,7
Ohangaron	45,6	110,7	6,3	4,4 m.	39,3	98,9
Bekobod	61,1	105,1	2,4	2,3 m.	58,7	102,8
Bo'stonliq	116,1	101,8	3,5	51,7	112,5	105,0
Bo'ka	90,8	100,7	1,7	50,2	89,1	102,7
Quy Chirchiq	47,0	103,7	0,7	77,8	46,4	104,2
Zangiota	370,4	106,8	12,4	73,4	358,0	108,5
Yuqori Chirchiq	90,9	100,7	4,8	28,0	86,1	118,0
Qibray	186,6	106,7	9,6	63,5	176,9	110,8
Parkent	104,7	101,7	1,4	36,2	103,3	104,3
Piskent	66,4	101,5	2,0	85,4	64,4	102,1
O'rta Chirchiq	47,1	101,5	7,0	95,2	40,1	102,7
Chinoz	124,6	101,5	38,1	97,0	86,5	103,6
Yangiyo'l	124,5	101,4	3,5	62,6	121,0	103,2
Toshkent	162,3	106,1	29,7	92,0	132,6	109,9

2019-yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Nurafshon shahri hamda Ohangaron va Zangiota tumanlarida qayd etildi.




**CHAKANA  
SAVDO  
TOVAR  
AYLANMASI  
TARKIBI**

(hajmi va o'sish sur'atlari)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2019-yilning mos davriga nisbatan 13,5 % ga kamaydi va 236,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 8,6 % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 2 518,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 5,6 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 91,4 % ga teng keldi.



**CHAKANA  
SAVDO  
TOVAR  
AYLANMASI  
TARKIBI**

(hajmi mlrd. so'm)





**TOSHKENT  
VILOYATI  
BO'YICHA AHOLI  
JON BOSHIGA  
NISBATAN  
CHAKANA  
SAVDO TOVAR  
AYLANMASI  
HAJMI  
(ming so'm)  
VA O'SISH  
SUR'ATLARI  
(foizda)**


2020-yilning yanvar-fevral oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 947,5 ming so'm (2019-yilning mos davri bilan solishtirganda 2,2 % ga o'sdi) va viloyatning barcha hududlarida aholi jon boshiga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlari o'sish sur'atlari kuzatildi.

	<b>Hajm, ming so'mda</b>	<b>O'sish sur'atlari, % da</b>
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>947,5</b>	<b>102,2</b>
<i>Shaharlar:</i>		
Nurafshon	1574,3	108,8
Olmalik	1881,8	101,4
Angren	726,2	101,3
Bekobod	1969,0	101,2
Ohangaron	1317,6	100,4
Chirchiq	908,8	101,7
Yangiyo'l	2863,0	100,1
<i>tumanlar:</i>		
Oqqo'rg'on	1095,0	101,5
Ohangaron	481,6	109,2
Bekobod	393,5	103,5
Bo'stonliq	692,5	100,8
Bo'ka	731,4	99,0
Quy Chirchiq	441,2	102,2
Zangiota	1896,4	105,7
Yuqori Chirchiq	681,1	99,2
Qibray	940,8	105,2
Parkent	686,0	99,9
Piskent	666,2	100,2
O'rta Chirchiq	319,9	99,9
Chinoz	945,0	99,9
Yangiyo'l	600,6	99,9
Toshkent	910,6	104,7

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganida eng yuqorisi Olmalik (1 881,8 ming so'm), Ohangaron (1 317,6 ming so'm) va Nurafshon (1 574,3 ming so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keladi. Buning sababi, ushbu hududlarda yirik savdo va sanoat tashkilotlari joylashgan.



**TOSHKENT VILOYATI HUDUDLARI KESIMIDA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI O‘SISH SUR‘ATLARI (foizda)**



**HUUDDLAR KESIMIDA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI HAJMI (mlrd. so‘m)**

2020-yilning yanvar-fevral oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,4 % ni tashkil etib, 67,2 mlrd. so‘mga yetdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 8,9 % o‘ydi. Bunda jami savdo aylanmasining 72,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushiga to‘g‘ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalarida savdo aylanmasining eng yuqori ko‘rsatkichi Olmaliq shahriga (viloyatning jami tovar aylanmasiga nisbatan 23,7 %) to‘g‘ri kelmoqda. Nisbatan yuqori hajm Chirchiq (11,5 %), Ohangaron (9,8 %) va Angren (3,7 %) shaharlarida kuzatildi.



**HUDUDDLAR  
KESIMIDA  
ULGURJI SAVDO  
TOVAR  
AYLANMASI  
HAJMI  
(mlrd. so'm)  
VA O'TGAN  
YILNING SHU  
DAVRIGA  
NISBATAN O'SISH  
SUR'ATLARI  
(foizda)**

	Jami	%	Yirik korxonalar	%	Kichik biznes	%
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>1288,6</b>	<b>111,3</b>	<b>697,0</b>	<b>117,9</b>	<b>591,6</b>	<b>104,4</b>
<i>Shaharlar:</i>						
Nurafshon	6,5	103,3	-	-	6,5	103,5
Olmaliq	28,3	110,8	6,7	140,7	21,6	103,9
Angren	9,7	104,2	-	-	9,7	104,3
Bekobod	14,0	104,9	-	-	14,0	104,8
Ohangaron	8,4	103,7	-	-	8,4	103,7
Chirchiq	28,2	110,0	1,6	3,1 m.	26,6	105,9
Yangiyo'l	37,1	106,4	-	-	37,1	106,4
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	1,1	102,9	-	-	1,1	102,5
Ohangaron	8,3	102,7	-	-	8,3	103,9
Bekobod	7,6	99,3	3,6	98,6	4,0	99,9
Bo'stonliq	14,1	103,3	0,1	62,7	14,0	103,5
Bo'ka	6,2	102,7	-	-	6,2	102,8
Quyichirchiq	4,9	102,6	-	-	4,9	102,9
Zangiota	141,0	105,5	2,1	5 m.	138,9	104,3
Yuqori Chirchiq	21,6	78,3	0,1	1,3	21,5	103,5
Qibray	470,9	172,7	413,1	189,8	57,8	104,9
Parkent	21,1	105,6	-	-	21,1	105,6
Piskent	7,1	102,6	-	-	7,1	102,7
O'rta Chirchiq	222,3	76,7	216,0	76,1	6,3	103,4
Chinoz	63,1	77,6	51,9	73,6	11,2	103,2
Yangiyo'l	36,5	106,8	0,1	154,9	36,5	106,7
Toshkent	130,6	102,9	1,7	61,7	128,9	103,8

2019-yilning mos davriga nisbatan ulgurji savdo tovar aylanmasi yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Olmaliq shahrida (110,8 %), Chirchiq shahrida (110,0 %) va Yangiyo'l tumanida (106,4 %) kuzatildi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi bo'limi  
Tel.:71-230-86-59**